Yusupov Nizomiddin Ro'zimurod o'g'li	
Mintaqa sanoat korxonalarining strategik marketing faoliyatining tahlili	793
Xaytboyeva Nigora Bakmatovna	
Soyabon bandlarining xorijiy investorlarni himoya qilish uchun O'zbekiston huquqiy tizimiga integratsiyalashuv zaruriyati	805
Alisherova E'zoza, N.X. Rahmonqulova	
Tadbirkorlik subyektlarini kreditlashda tijorat banklari faoliyatining zamonaviy yondashuvlari	812
Urinboyev Abrorbek Maxmudjonovich	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlarni tashkil etishni samaradorligini oshirish yo'llari	817
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining ilmiy jihatlar va nazariy yondashuvlari	822
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Международная правосубъектность МНПО: институционализация влияния неправительственных организаций в формировании международных экологических и экономических норм	827
Хидоятлов Бурхон Ғайрат ўғли, С.М. Адилходжаева	
Yengil sanoat korxonalari mahsulotlarini narxlashtirish strategiyalari	831
Ravshanbekov Oybek Rustambek o'g'li	
Yevropa ittifoqi va markaziy osiyo mamlakatlaridagi soliq siyosatining inklyuziv rivojlanishdagi o'rni va omillarining qiyosiy tahlili	837
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
Mintaqa turizmini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan mijozlar qoniqishini kompleks baholash uslubi	846
Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi	
Mintaqaviy eksport samaradorligiga innovatsion yondashuvlarning ta'sir omillarini tadqiq etish	851
Ibadullayev Ergash Baqturdiyevich	
Buxoro viloyatida ichki turizmning hozirgi holati va istiqboldagi rivojlanish yo'llari	857
Azimov Otabek Xudayberdievich	
Tashqi bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlarining mintqa iqtisodiyotining o'sishga ta'siri bo'yicha qarashlar	862
Ozodova Farida Zarif qizi	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashni boshqarish strategiyalari	866
Madaminov Bekzod Allayarovich	



TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Madaminov Bekzod Allayarovich

Ma'mun universiteti Magistratura Bo'lim boshlig'i

Fizika-Matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD v.b.professor

ORCID: 0009-0002-2806-691X

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini boshqarish bilan bog'liq dolzarb masalalar yoritilgan. Moliyaviy xatarlar, nazorat tizimlari va samarali boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinib, barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, kapitallashuv, likvidlilik darajasini oshirish, kreditlash mexanizmi, risk darajasini pasaytirish.

Abstract: The article covers current issues related to managing the financial stability of commercial banks. Financial risks, control systems, and effective management mechanisms are analyzed, and proposals and recommendations are put forward to strengthen stability.

Key words: commercial banks, financial stability, capitalization, increasing the level of liquidity, lending mechanism, reducing the level of risk.

Аннотация: В статье освещены актуальные вопросы, связанные с управлением финансовой устойчивостью коммерческих банков. Проанализированы финансовые риски, системы контроля и эффективные механизмы управления, выдвинуты предложения и рекомендации, направленные на укрепление устойчивости.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая устойчивость, капитализация, повышение уровня ликвидности, механизм кредитования, снижение уровня риска.

KIRISH

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bank sektoridagi tadbirkorlik ham zamonaviy ishlab chiqarish nazariyasi bilan bevosita bog'liq. Uning mohiyati shundan iboratki, M. Porter va P. Samuelson ta'kidlaganidek, firma yoki korxonaning iqtisodiy natijalari asosan bozor tuzilishi va undagi iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Ya'ni, korxona samaradorligi ichki omillardan ko'ra ko'proq tashqi sharoitlarga bog'liq.

Mikroiqtisodiy talqinlarda esa korxona yoki tashkilot natijalari bozor tuzilishiga, undagi ishlab chiqarish munosabatlariga bevosita bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bozor tuzilmasi esa ishlab chiqaruvchilar soni, ularning hajmi, mahsulot xilma-xilligi, raqobat muhiti, konsentratsiya darajasi, mahsulot differentsiatsiyasi va diversifikatsiyasi kabi omillar orqali ifodalanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kungacha bank menejmenti va uni takomillashtirish masalalari mahalliy hamda MDH davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Tijorat banklari faoliyatida menejment tamoyillari va ularni rivojlantirish yo'nalishlari V.M. Usoskin [1], D.J. Siynki [2], Y.F. Jukova [3], U. Kox Timoti [4], I.V. Larionova [5], E. Rid [6], Y.A. Malenkov [7] kabi yetakchi xorijiy olimlar tadqiqotlarida aks etgan.

O'zbekiston olimlaridan B.T. Berdiyarov [8], V.A. Kotov, I.L. Butikov, N.X. Jumaev, O.B. Sattarov [9], O.Q. Abduraxmanov, R.T. Tursunov, R.R. Tojiev [10] tijorat banklari faoliyati, vazifalari va rivojlanishining nazariy-amaliy jihatlarini yoritganlar. Shuningdek, bank marketingi va moliyaviy menejmentni boshqaruv jarayoniga tatbiq etish masalalari A.Sh. Bekmurodov, B.Z. Mustafaeu [11], B.K. Mirzamaydinov [12], M. Nasritdinova, M.M. Abduraxmanova [13] kabi olimlar izlanishlarida o'z aksini topgan.



Shunga qaramay, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi globallashuv sharoitida yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Ushbu ilmiy izlanishda aynan shu masalalarga oid nazariy qarashlar, uslubiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha zarur ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishga asoslanadi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari, tijorat banklari moliyaviy ko'rsatkichlari, xalqaro moliya institutlari ma'lumotlari hamda ilmiy adabiyotlardan olinadi. Olingan ma'lumotlar statistik va qiyosiy tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, xulosalar chiqariladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank tizimidagi strategiyalar ierarxiasining umumiy xususiyatlarini beshta ko'rsatkich asosida tasniflash mumkin: miqyosi, maqsad va vazifasi, resurslar taqsimoti, raqobat ustunligi, sinergizm.

I. Ansoff bozorlar ko'rinishi va tovarlarning turiga ko'ra asosiy to'rtta strategiyani ko'rsatadi va banklarda ham ularni qo'llash samarali hisoblanadi: bozorga chuqurroq kirib borish, bozor chegaralarini kengaytirish, yangi tovar ishlab chiqarish va diversifikatsiyalash [14]. BKG (Boston Konsalting Guruhi)ning "o'sish-bozor ulushi" matritsasi asosida esa hujum, mudofaa va chekinish strategiyalarini qo'llash mumkin.


Hujum strategiyasi – bu bozor da'vogari tomonidan sotuv bozorlarini egallash uchun qo'llaniladigan raqobat strategiyasidir. Front bo'yicha hujum raqobatchining kuchli tomonlariga qarshi faol choralar ko'rib, mahsulot, reklama va narx kabi yo'nalishlarda ustunlikka erishishni anglatadi. Uni amalga oshirish uchun korxona katta resurslarga va uzoq muddatli "jang"ni olib borish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Qanot hujumi esa raqobatchining kuchsiz tomonlariga qaratiladi. Chunki raqobatchi resurslarini asosan kuchli pozitsiyalarni himoya qilishga yo'naltiradi. Masalan, sifat bo'yicha yetakchilikni saqlab qolishi mumkin, biroq vositachilar bilan ishlashda zaifliklarga ega bo'ladi. Shu bois kam resursga ega korxonalar uchun bu strategiya kutilmagan natijalar berishi ehtimoldan xoli emas. Umumiy maqsad – tajriba samarasidan foydalanib, bozor ulushi va rentabellikni oshirishdir.

Mudofaa strategiyasi esa bozor lideri tomonidan qo'llanilib, erishilgan yutuqlarni, bozordagi ulushni, brend obro'sini va tovar harakati ustidan nazoratni saqlashga qaratiladi. U pozitsiyali mudofaa, qanot mudofaasi, qayta hujum, mobil mudofaa va qisilib keluvchi mudofaa shakllarida namoyon bo'ladi.

M. Porter raqobat ustunliklarini uch strategiyaga ajratadi: xarajat/hajm, differensiasiya va ixtisoslashuv strategiyasi. Bank tizimini tahlil qilish va uning jozibadorligini baholashda keng qo'llaniladigan yondashuvlardan biri ham M. Portering "Besh raqobat kuchi" modelidir.

M. Portering besh raqobat kuchi – tarmoq ichidagi raqobatchilar, yangi raqobatchilar, ta'minotchilar, iste'molchilar va o'rinbosar mahsulotlardan keluvchi xavflarni tahlil qilish korxonaga ushbu tarmoqqa kirib borish yoki unda qolish imkoniyatlarini aniqlash hamda strategik marketing qarorlarini shakllantirish imkonini beradi (1-rasm). [15]



1-rasm. Bank sektorining jozibadorligini aniqlovchi asosiy kuchlar

M. Portering "besh raqobat kuchi" modelida uchinchi kuch sifatida ta'minotchi – Markaziy bank ko'rsatiladi. To'rtinchi kuch esa bank mijozlarining bozor hukmronligidir. Ular narxlarni pasaytirish, mahsulot sifatini oshirish va qo'shimcha xizmatlarni talab qilish orqali tarmoq ichidagi raqobatni kuchaytirishi mumkin. Mijozlarning bozor hukmronlik darajasi bir necha omillar bilan belgilanadi: yirik mijozlarning kredit hajmidagi ulushi yuqori bo'lsa, ularning ta'siri kuchayadi, aksincha, ta'minotchilarni almashtirish xarajatlari ortishi hukmronlikni pasaytiradi.

Bank xizmatlari kengayib, xodimlar tajribasi oshgani sari vaqt o'tishi bilan operatsion xarajatlar kamayadi. Shu jarayonda bank tadbirkorligida kompetentlik yadrosi – ya'ni asosiy ko'nikma va qobiliyat muhim o'rin tutadi.



U biznesni yuritishda tayanch bo'lib xizmat qiladi hamda yangi yo'nalishlarni rivojlantirishga turtki beradi.

Banklarda strategik biznes birliklarini aniqlash mezonlari quyidagilardan iborat: narxlar va foiz stavkalarining mustaqil o'zgarishi, mijozlar segmenti hamda raqobatchi xizmatlar xilma-xilligi, mahsulot va xizmatlarning turli sifat darajalari va ularning o'zaro to'liq almashinmasligi. Shuningdek, xizmat turini o'zgartirish boshqa yo'nalishlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (1-jadval).

1 jadval. Milliy bank Bosh boshqarmasining Toshkent shahridagi filialining strategik biznes birligi va kompetentlik yadrosini taqqoslash ma'lumoti [15]

Tavsifnoma	Strategik biznes birligi (SBB)	Kompetentlik yadrosi
Bank nuqtai nazaridan	Yangi xizmatlar turini yaratish va bozor segmentini egallash	Innovatsion faoliyatni amalga oshirish
Raqobat asosi	Bugungi bozor ulushi	Bozor yetakchiligi
Korporativ tuzilma	Diskret bizneslar portfeli	Kompetentlikni diversifikatsiyalash
Strategik biznes birligi statusi	Faol harakat natijasida barcha maqsadlarga erishish	Yaratuvchi manbalar zaxirasi
Resurslarni taqsimlash	SBB orasida kapitalni taqsimlash natijasida investitsiya oqimini optimallashtiradi	Istiqbolni ta'minlash uchun kompetentlikni kuchaytirish va innovatsiya

Bank kompetentlik yadrosining strategik arxitekturasini quyidagicha ifodalanadi: kompetentlik turini belgilovchi "yo'l xaritasi"ni tanlash, resurslarni butun bank miqyosida shaffof taqsimlash, strategik biznes birliklari o'rtasida texnik va tashkiliy aloqalarni mustahkamlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish, mijozlar va bo'linmalar bilan vositachilarsiz samarali muloqotni yo'lga qo'yish.

Kompetentlik yadrosini shakllantirish zamonaviy menejment usullarini qo'llashni talab etadi. Bunga kelajakni oldindan ko'ra bilish, zarur kompetensiyalarni aniqlash, barqaror rivojlanish imkoniyatlarini belgilash, kompetentlikni yaratuvchi inson resurslarini shakllantirish, shuningdek, inson va moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash kiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston tijorat banklari xalqaro tajribadan foydalanib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet tizimlarini faol tatbiq etmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning 11 oyi davomida muomaladagi bank kartalari soni joriy yilning 1-dekabr holatiga ko'ra 6,4 million donaga oshib, 33,5 millionga yetgan yoki nisbiy jihatdan +23,8 % ga ko'paygan.

Shunday qilib, O'zbekistonning 31 ta amaldagi tijorat banklari muomalaga chiqargan bank plastik kartochkalari soni 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2 jadval. O'zbekistonning 31 ta amaldagi tijorat banklari muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari soni [15]

1	Xalq banki	6 872 821	20,5%
2	Agrobank	3 893 321	11,6%
3	Ipoteka bank	3 100 767	9,2%
4	Milliy bank	3 029 344	9,0%
5	Ipak Yo'li banki	2 048 234	6,1%
6	O'zsanoatqurilishbanki	1 941 839	5,8%
7	Hamkorbank	1 534 726	4,6%
8	Aloqabank	1 267 477	3,8%
9	Asaka bank	1 119 762	3,3%
10	Anor bank	1 111 400	3,3%
11	Mikrokreditbank	1 108 321	3,3%
12	Ravnaq bank	847 638	2,5%
13	TBC bank	715 490	2,1%
14	Turonbank	647 104	1,9%
15	Kapitalbank	641 563	1,9%
16	Qishloq qurilish bank	598 337	1,8%



17	Orient Finance bank	572 939	1,7%
18	Invest Finance bank	572 319	1,7%
19	Trastbank	395 876	1,2%
20	Asia Alliance bank	355 627	1,1%
21	Davr bank	331 794	1,0%
22	Garant bank	317 398	0,9%
23	Universalbank	263 066	0,8%
24	Tenge bank	82 291	0,2%
25	Ziraat Bank Uzbekistan	75 262	0,2%
26	KDB Bank Uzbekistan	73 554	0,2%
27	Poytaxt bank	18 105	0,1%
28	Madad Invest bank	10 635	0,0%
29	Soderot bank Toshkent	1 515	0,0%
30	O'zagroeksportbank	1 388	0,0%
31	Bank Apelsin	0	0,0%

O'zbekiston tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar va o'rnatilgan to'lov terminallari soni mamlakatdagi bank xizmatlari infratuzilmasining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Yetakchi o'rinda Xalq banki turibdi — kartalar soni bo'yicha 6,87 million (20,5 %) va terminallar bo'yicha 49,3 ming (11,5 %) ulush bilan. Undan keyin Agrobank, Ipoteka banki va Milliy bank kelmoqda, ularning har biri 3 milliondan ortiq karta chiqarib, terminal ta'minoti bo'yicha ham yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Ipak Yo'li banki plastik kartalar soni bo'yicha kuchli beshlikda bo'lsa-da, terminallar soni bo'yicha Mikrokreditbankdan ortda qolgan. Aksariyat kichik banklar, xususan Bank Apelsin, Soderot bank va O'zagroeksportbank infratuzilmaviy imkoniyatlari jihatidan nihoyatda cheklangan — ular na kartalar, na terminallar sonida muhim o'rin tutmaydi. Umuman, bir nechta yirik davlat banklari mamlakatdagi raqamli to'lov tizimining asosiy tayanchiga aylangan bo'lib, bu ularning keng filial tarmog'i va texnologik infratuzilmasi bilan bog'liq. Shu bilan birga, xususiy va xorijiy kapitalga ega banklar hali raqobatda to'liq ishtirok etmayapti. Shu ma'noda, o'rnatilgan to'lov terminallari soni bo'yicha O'zbekiston tijorat banklari quyidagi o'rinlarda turadi (3-jadval).

O'zbekiston tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va axborot kiosklari soni bo'yicha tahlil ularning moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish darajasini ko'rsatadi. Xalq banki har uch indikator bo'yicha yuqori o'rinni egallab, 49 mingdan ortiq terminal (11,5 %), 2 204 ta bankomat va kiosk (10,9 %) bilan raqamli to'lov ekotizimida yetakchi hisoblanadi. Agrobank va Ipoteka banki ham terminal va bankomatlar soni bo'yicha yuqori faollik ko'rsatgan, bu ularning mintaqaviy tarmoqlari orqali aholi bilan faol ishlayotganidan dalolat beradi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistonning o'rnatilgan to'lov terminallari soni [15]

1	Xalq bank	49 265	11,5%
2	Agrobank	41 016	9,6%
3	Ipoteka bank	40 613	9,5%
4	Milliy bank	40 465	9,4%
5	O'zsanoatqurilishbanki	33 751	7,9%
6	Hamkorbank	31 967	7,4%
7	Mikrokreditbank	23 816	5,5%
8	Ipak Yo'li banki	23 762	5,5%
9	Qishloq qurilish bank	17 192	4,0%
10	Asaka bank	15 829	3,7%
11	Turonbank	14 470	3,4%
12	Aloqabank	13 454	3,1%
13	Kapitalbank	13 359	3,1%
14	Invest Finance bank	11 967	2,8%



15	Trastbank	11 894	2,8%
16	Orient Finance bank	9 580	2,2%
17	Garant bank	8 917	2,1%
18	Asia Alliance bank	7 822	1,8%
19	Davr bank	7 433	1,7%
20	Universalbank	6 859	1,6%
21	Tenge bank	1 147	0,3%
22	Ravnaq bank	1 077	0,3%
23	Anor bank	1 062	0,2%
24	KDB Bank Ubekistan	892	0,2%
25	Ziraat Bank Uzbekistan	693	0,2%
26	Poytaxt bank	404	0,1%
27	Madad Invest Bank	355	0,1%
28	TBC bank	33	0,0%
29	O'zagroeksportbank	33	0,0%
30	Soderot bank Toshkent	29	0,0%
31	Bank Apelsin	0	0,0%

Kapitalbank terminallar bo'yicha nisbatan o'rta o'rinda tursa-da, bankomat va kiosklar soni bo'yicha kuchli uchlikka kiradi (2 100 dona, 10,3 %). Aksincha, bir qancha banklar — xususan TBC bank, Anor bank, Bank Apelsin va boshqa kichik subyektlar texnik infratuzilma joriy etishda sustlik qilmoqda. E'tiborga molik jihat — "To'lov tashkilotlari" segmentining 6 441 ta bankomat va kiosk bilan bozorning 31,7 %ini egallab turishi, bu esa xususiy to'lov tizimlarining tez sur'atda kengayayotganini ko'rsatadi. Umuman, yirik davlat banklari va ba'zi xususiy banklar o'z xizmat tarmoqlarini faol rivojlantirayotgan bo'lsa-da, ayrim banklar moliyaviy texnologiyalarni joriy etishda jiddiy orqada qolmoqda.

2022-yilning yanvar–noyabr oylarida O'zbekiston tijorat banklari to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan tushumlar hajmi bo'yicha sezilarli tafovutlar kuzatilgan. Eng yuqori tushumni Aloqabank qayd etgan — 35,95 trln so'm yoki umumiy hajmning 22,7 %, bu uning texnologik salohiyati va yirik korporativ mijozlar bilan faol ishlashini ko'rsatadi. Keyingi o'rinlarda Ipoteka bank (11,76 trln so'm) va Milliy bank (9,70 trln so'm) turibdi.

Xalq banki terminal soni bo'yicha yetakchi bo'lsa-da, tushum miqdori bo'yicha to'rtinchi o'rinda (9,59 trln so'm), bu esa uning infratuzilmasi keng bo'lsada, savdo aylanishi nisbatan pastroq filiallarga tarqalganini anglatadi. Kapitalbank va Hamkorbank esa o'rta darajadagi terminal soni bilan yuqori tushumga erishgan, bu ularning samarali mijoz bazasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Trastbank va Universalbank ham 5 trln so'mdan ortiq tushum bilan yuqori faollik namoyish qilgan.

Eng past natijalar O'zagroeksportbank, Turkistonbank va Hi-Tech banklarda qayd etilgan bo'lib, ular bozordagi ishtirokining cheklanganligini ko'rsatadi. Umuman, banklar o'rtasidagi raqamli to'lovlar samaradorligi ularning nafaqat terminal soniga, balki mijoz tarmog'i, xizmatlar segmentatsiyasi va texnologik yechimlarga bo'lgan yondashuviga ham bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari uchun eng muhim strategiya — differensiasiya va raqamli transformatsiyaga asoslangan kombinatsiyalashgan strategiya hisoblanadi. Iqtisodiyotning raqamli bosqichga o'tishi bilan mijozlarning talab va kutishlari o'zgarib, moliyaviy xizmatlarga bo'lgan yondashuv ham yangilanmoqda.

Bunday sharoitda Ansoffning bozorga chuqurroq kirib borish va yangi tovar ishlab chiqarish strategiyalari banklar tomonidan raqamli xizmatlar, masofaviy banking, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish, tezkor kreditlash va blokcheyn asosidagi xavfsizlik mexanizmlari yordamida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, mijozga yo'naltirilgan innovatsion xizmatlar orqali bozorda farqlanish — differensiasiya strategiyasi — bankka mijoz sadoqatini oshirish va yangi segmentlarni jalb qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, Porterning xarajat ustunligi strategiyasi ham dolzarbligini yo'qotmayapti. Raqamli texnologiyalar xarajatlarni optimallashtirish, inson omilini qisqartirish va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali operatsion samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotda banklar ko'proq o'z resurslarini aniq yo'naltirilgan, ixtisoslashgan xizmatlarga sarflab, Porterning ixtisoslashuv strategiyasidan ham samarali foydalanmoqda.



Shu nuqtayi nazardan qaraganda, BKG matritsasining mudofaa strategiyasi, xususan mobil mudofaa va qayta hujum yondashuvlari, innovatsion texnologiyalar yordamida raqobatchilarga tezkor javob qaytarish, mijozlar oqimini saqlab qolish va yangi xizmatlar bilan raqobatga kirishish imkonini beradi.

Natijada, tijorat banklari raqamli transformatsiyani amalga oshirib, raqamli texnologiyalar orqali xizmatlar sifatini oshirishi, bozordagi pozitsiyalarini mustahkamlashi va moliyaviy barqarorlikka erishishi mumkin. Shu sababli, differensiasiyalashgan va raqamli raqobat ustunligini qo'llab-quvvatlovchi kompleks strategiyalar tijorat banklari uchun eng ustuvor strategik yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции.-Москва: МКЦ ДИС, 1997.-464 с.;
2. Дж. Синки, мл. Управление финансами в коммерческих банках. пер. с англ. 4-го переработанного изд. БМА.М.: 1994, Са1а11аху. - 820 с.;
3. Е.Ф.Жукова. -М.: ЮНИТИ-ДАНА: Единство, 2006. - 575 с.;
4. Тимоти У. Кох. Управление банком: пер. с англ. В 5-ти томах (книгах), 6-ти частях. Уфа: Спектр. Часть 1,2003. - 112 с.;
5. Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. - М.: Консалтбанкир, 2003. - 272 с.;
6. Рид Э. Коммерческие банки. - М: Прогресс, 2006.- 261 с.;
7. Маленков Ю.А. Стратегический менеджмент: учеб. - М.: Проспект, 2009. - 224 с.
8. Berdiyarov B.T.Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadligi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. - Toshkent.BMA. 2002. -21 b.;
9. Sattorov O.B. Tijorat banklari lakvchdliligshsh ta'minlashni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. - Toshkent, BMA, 2008. - 21 b.;
10. Tojiyev R.R. Tijorat banklari likvidligini boshkarishning innovatsion strategiyasi. ("Agrobank" OATB misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.-T.: TDIU.2011.
11. Mustafoyev B.Z. Bank marketingi-moliya bozori shakllanishi va rivojlanishining asosi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.-T.: TDIU.1998.;
12. Mirzamaydinov B.K. Bank xizmatida marketing samaradorligi.(O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqqisodiy faoliyat milliy banki misolida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.-T.: TDIU.2008.;
13. Abduraxmonova M.M. Bank xizmatlari bozorida marketing faoliyatini rivojlantirish.. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya.-T.: TDIU.2010.
14. Ансофф И. Стратегическое управление / Пер.с.анг. М.: Экономика, 1989. С.186.
15. Porter M. How competitive forces shapt strategy. Comprative Economics, Vol. 5, 1980, pp. 141-159.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>